




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



*2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer
va dehqon xo'jaliklarisiz)*

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025-yil 1-yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 23 098 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 19 101 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 38 492 ta korxonalar ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1-yanvar holatiga)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)

2024-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 940 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o‘sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Termiz tumanida (256 taga), Termiz shahrida (218 taga) va Jarqo‘rg‘on tumanida (191 taga) o‘sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko‘rsatkichni sanoat – 438 taga, savdo – 240 taga va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – 203 taga ko‘paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 23 098 tani tashkil etdi, ulardan 19 184 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo - 32,7 foiz, sanoat - 12,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 9,7 foiz, qurilish - 7,9 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Termiz shahrida - 17,3 foiz, tumanlardan Denov - 12,0 foiz, Jarqo'rg'on - 7,7 foiz, Sherobod - 7,1 foiz va Termizda - 6,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)


Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 819 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 812 ta;
- yirik korxonalar 7 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 19 184 tani tashkil etdi, ulardan 19 101 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo - 39,4 foiz, sanoat - 15,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 11,4 foiz, qurilish - 9,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 7,5 foiz, tashish va saqlash - 3,1 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,0 foiz, axborot va aloqa - 1,7 foiz, boshqa turlari - 9,9 foiz.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida sanoatda yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 611 tadan 1 033 taga (o'sish 422 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 411 tadan 615 taga (o'sish 204 taga) ko'paydi.

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni


(birlikda)



(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Termiz shahrida (17,9 foiz), Denov (12,2 foiz), Jarqo'rg'on (7,8 foiz), Termiz (7,4 foiz) va Sherobod (7,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Sherobod (15,2 foiz), Denov (10,9 foiz) va Termiz (10,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Sherobod t.	339
Denov t.	244
Termiz t.	223
Jarqo‘rg‘on t.	219
Uzun t.	169
Qumqo‘rg‘on t.	167
Muzrabot t.	133
Angor t.	123
Sho‘rchi t.	121
Qiziriq t.	96
Boysun t.	95
Termiz sh.	93
Sariosiyo t.	87
Oltinsoy t.	83
Bandixon t.	40

Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish | 2 100



118 | Baliq ovlash va akvakultura



O‘rmonchilik va yog‘och tayorlash | 14



(2025-yil 1-yanvar holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 12,7 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,2 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,2 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	418
Denov t.	362
Sho'rchi t.	249
Qumqo'rg'on t.	224
Jarqo'rg'on t.	201
Sariosiyo t.	200
Sherobod t.	182
Angor t.	174
Uzun t.	168
Termiz t.	159
Boysun t.	146
Oltinsoy t.	145
Muzrabot t.	125
Qiziriq t.	121
Bandixon t.	65

Yillar kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-yanvar holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 57,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 22,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 20,9 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 540 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 61,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 27,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,4 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	1 224
Denov t.	1 040
Jarqo'rg'on t.	602
Sho'rchi t.	573
Termiz t.	569
Qumqo'rg'on t.	503
Sherobod t.	476
Angor t.	456
Oltinsoy t.	381
Sariosiyo t.	348
Uzun t.	347
Qiziriq t.	324
Muzrabot t.	279
Boysun t.	218
Bandixon t.	210

Yillar kesimida soni (birlikda)



4 668

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

2 102

780

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	143
Denov t.	92
Sherobod t.	53
Jarqo'rg'on t.	50
Sho'rchi t.	39
Qumqo'rg'on t.	38
Termiz t.	35
Qiziriq t.	33
Angor t.	25
Oltinsoy t.	24
Sariosiyo t.	19
Muzrabot t.	18
Uzun t.	15
Boysun t.	14
Bandixon t.	4

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:


- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 69,1 foizni tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 28,4 foizni;

- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 2,2 foizni;

- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,3 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 1 516 taga yetib, ularning 1 508 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:




mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,8 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	364
Denov t.	176
Sariosiyo t.	106
Termiz t.	104
Sherobod t.	101
Sho'rchi t.	100
Jarqo'rg'on t.	98
Boysun t.	84
Qumqo'rg'on t.	73
Muzrabot t.	69
Angor t.	65
Uzun t.	62
Oltinsoy t.	50
Qiziriq t.	35
Bandixon t.	29



(2025-yil 1-yanvar holatiga)

2025-yil 1-yanvar holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 69,0 foizini;


Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 2,7 foizni;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 28,3 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	113
Denov t.	39
Jarqo'rg'on t.	24
Sho'rchi t.	23
Oltinsoy t.	19
Qiziriq t.	16
Uzun t.	13
Bandixon t.	13
Muzrabot t.	12
Termiz t.	11
Angor t.	11
Boysun t.	10
Sherobod t.	10
Qumqo'rg'on t.	9
Sariosiyo t.	9

Yillar kesimida soni (birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	134	95	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	50	44	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	7	2	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 385 ta yoki 84,8 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,7 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;


yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,4 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,9 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot
(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)


Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)



(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	728	Sherobod t.	171
Termiz t.	366	Angor t.	168
Denov t.	311	Boysun t.	106
Jarqo'rg'on t.	291	Muzrabot t.	90
Sho'rchi t.	274	Sariosiyo t.	80
Qumqo'rg'on t.	216	Bandixon t.	70
Qiziriq t.	185	Uzun t.	47
Oltinsoy t.	183		

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Amaldagi 19 184 ta tijorat korxonasi va tashkilotlaridan 2025-yil 1-yanvar holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 11 252 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkin, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,5 foiz, sanoat – 13,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 12,5 foiz, qurilish – 12,1 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Termiz sh.	2 560	Boysun t.	486
Denov t.	1 197	Qiziriq t.	463
Termiz t.	991	Sariosiyo t.	447
Jarqo'rg'on t.	844	Oltinsoy t.	429
Sherobod t.	823	Muzrabot t.	401
Sho'rchi t.	731	Uzun t.	313
Qumqo'rg'on t.	718	Bandixon t.	249
Angor t.	600		

(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)

Uzun t.	71	Qiziriq t.	19
Sariosiyo t.	60	Bandixon t.	16
Denov t.	52	Oltinsoy t.	9
Sherobod t.	44	Qumqo'rg'on t.	9
Termiz sh.	42	Termiz t.	6
Sho'rchi t.	41	Angor t.	6
Muzrabot t.	33	Boysun t.	3
Jarqo'rg'on t.	28		


(2025-yil 1-yanvar holatiga)

2025-yil 1-yanvar holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan. Denov tumanida – 662 ta, Termiz sh – 589 ta va Uzun tumanida – 411 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 1 979 ta, sanoat – 613 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 418 ta va qurilish sohasida – 385 ta.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Denov t.	662
Termiz sh.	589
Uzun t.	411
Sariosiyo t.	342
Jarqo'rg'on t.	334
Sho'rchi t.	313
Qumqo'rg'on t.	285
Sherobod t.	269


Angor t.	242
Termiz t.	231
Muzrabot t.	222
Oltinsoy t.	164
Qiziriq t.	143
Boysun t.	120
Bandixon t.	80

(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Denov t.	167	Sho'rchi t.	50
Jarqo'rg'on t.	161	Termiz t.	50
Termiz sh.	141	Muzrabot t.	45
Sariosiyo t.	83	Qumqo'rg'on t.	34
Oltinsoy t.	72	Boysun t.	34
Angor t.	68	Uzun t.	30
Sherobod t.	67	Bandixon t.	23
Qiziriq t.	59		


(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 3 307 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,0 foiz, sanoat – 23,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 16,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,1 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Denov – 13,7 foiz, Jarqo'rg'on – 9,4 foiz va Sherobod – 8,3 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Denov t.	452
Jarqo'rg'on t.	310
Sherobod t.	275
Termiz sh.	252
Sho'rchi t.	247
Oltinsoy t.	236
Angor t.	222
Sariosiyo t.	203

Qumqo'rg'on t.	203
Termiz t.	178
Uzun t.	169
Qiziriq t.	168
Boysun t.	153
Muzrabot t.	135
Bandixon t.	104

(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 100,0 foizini tashkil etadi

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Oltinsoy t.	6
Muzrabot t.	3
Jarqo'rg'on t.	2
Sariosiyo t.	2
Sho'rchi t.	2
Qumqo'rg'on t.	1
Uzun t.	1
Boysun t.	1

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-yanvar holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Oltinsoy (13,9 foiz), Denov (13,3 foiz) va Sherobod (9,7 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Oltinsoy t.	902
Denov t.	863
Sherobod t.	626
Sariosiyo t.	606
Qumqo'rg'on t.	555
Uzun t.	434
Sho'rchi t.	415
Muzrabot t.	401
Boysun t.	391
Jarqo'rg'on t.	346
Bandixon t.	305
Termiz t.	301
Angor t.	227
Qiziriq t.	108
Termiz sh.	1

Yillar kesimida soni (birlikda)




Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot (2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘shish sur‘ati 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,5 martaga oshgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Termiz t.	152	Bandixon t.	2
Termiz sh.	63	Angor t.	1
Denov t.	8	Jarqo‘rg‘on t.	1
Boysun t.	5	Sho‘rchi t.	1
Sariosiyo t.	3	Qumqo‘rg‘on t.	1
Qiziriq t.	2	Oltinsoy t.	1
Uzun t.	2		

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 483 ta korxonalaridan 66 tasi qo'shma korxonalar va 417 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Termiz sh.	201
Termiz t.	162
Sariosiyo t.	18
Uzun t.	15
Denov t.	15
Sho'rchi t.	12
Muzrabot t.	12
Angor t.	11

Boysun t.	8
Qiziriq t.	7
Bandixon t.	6
Jarqo'rg'on t.	6
Sherobod t.	5
Qumqo'rg'on t.	3
Oltinsoy t.	2

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Yetakchi o'rinni 335 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Afg'oniston Islom Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 69,4 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 8,3 foiz), Tojikiston (ulushi 4,6 foiz), Turkiya (ulushi 3,1 foiz) hamda Xitoy (ulushi 2,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2025-yil 1-yanvar holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar jami soniga nisbatan eng katta ulushi Termiz shahriga - 41,6 foiz, tumanlar orasida esa Termiz – 33,5 foiz, Sariosiyo - 3,7 foiz va Uzunga – 3,1 foiz to'g'ri keladi.

(2025-yil 1-yanvar holatiga)



2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tizimidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025-yil 1-yanvar** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



76-225-65-73

